XALQ DEPUTATLARI YANGIHAYOT TUMANI KENGASHINING
Q A R O R I

2025-yil 29-dekabr II-24-141-14-220-K/25 Yangihayot tumani

Yangihayot tumanida joylashgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun va noruda qurilish materiallari bo‘yicha (sementdan tashqari) soliqlar bo‘yicha 2026-yilda soliq stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsiyentlarni tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalari, O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi “2026-yil uchun O’zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-1105-sonli Qonuniga muvofiq, “Yangihayot tumanida joylashgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va noruda qurilish materiallari bo‘yicha (sementdan tashqari) soliqning 2026-yil uchun qat’iy belgilangan stavkalariga qo‘llaniladigan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar miqdorini tasdiqlash to‘g‘risida”gi tuman hokimining birinchi o‘rinbosari A.Maxmudov va tuman soliq inspeksiyasi boshlig‘i A.Malikovning axboroti va takliflarini tinglab, muhokama qilib, soliq yo‘nalishidagi faoliyatni samarali tashkil etish maqsadida, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Budjet kodeksi, O‘zbekiston Respublikasi “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi Qonuni va O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi asosida xalq deputatlari Yangihayot tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. “Yangihayot tumanida joylashgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va noruda qurilish materiallari bo‘yicha (sementdan tashqari) soliqning 2026-yil uchun qat’iy belgilangan stavkalariga qo‘llaniladigan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar miqdorini tasdiqlash to‘g‘risida”gi tuman hokimining birinchi o‘rinbosari A.Maxmudov va tuman soliq inspeksiyasi boshlig‘i A.Malikovning axboroti ma’lumot uchun qabul qilinsin, berilgan takliflari inobatga olinsin va ma’qullansin.

2. Qarorga binoan 2026-yil 1-yanvardan boshlab quyidagi tartib joriy etilsin:

a) 2026-yil 1-yanvardan yuridik va jismoniy shaxslarning noturar obektlari uchun yer solig‘i bo‘yicha mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar miqdori 1-ilovaga muvofiq;

b) 2026-yil 1-yanvardan jismoniy shaxslarning turar obyektlari uchun olinadigan yer solig‘i bo‘yicha mutloq miqdorda 1 kv. metr uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar miqdori 2-ilovaga muvofiq;

v) suv resurslaridan foydalanganlik uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar miqdori 3-ilovaga muvofiq;

g) noruda qurilish materiallari bo‘yicha (sementdan tashqari) soliqning qat’iy belgilangan stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar miqdori 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Yangihayot tumani soliq inspeksiyasi boshlig‘i A.Malikovga:

Ushbu qaror kuchga kirgandan so‘ng, o‘n kunlik muddat ichida, qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun 2026-yilga belgilangan soliq stavkalarini jismoniy va yuridik shaxslarga yetkazilishi;

budjet daromadlari ko‘rsatkichlarining bajarilishini ta’minlash, soliq bazasini kengaytirish, qo‘shimcha soliq zaxiralarini aniqlash va soliqqa tortish hamda tumanni iqtisodiy salohiyatini oshirish maqsadida zaruriy chora-tadbirlar ko‘rish hamda amalga oshirilgan ishlar yuzasidan xalq deputatlari Yangihayot tumani Kengashiga har chorak yakuni bo‘yicha ma’lumot kiritib borilishi ta’minlansin.

4. Xalq deputatlari Yangihayot tumani Kengashining Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi S.Vafayev, tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari A.Maxmudov, tuman soliq inspeksiyasi boshlig‘i A.Malikov, tumandagi tegishli okruglardan saylangan deputatlar va fuqarolarni o‘zini-o‘zi boshqarish organlari raislari bilan birgalikda:

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi bilan belgilangan yer solig‘i stavkalariga qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun mahalla kesimida 0,7 dan 3,0 gacha kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlarni kiritish va qo‘llash tartibi joriy etilganligini keng targ‘ib qilish, aholi o‘rtasida tushuntirish ishlarni olib borish vazifalari yuklatilsin.

5. Tuman hokimining Matbuot kotibi — axborot siyosati masalalari bo‘yicha maslahatchisi M.Abdushukurova va tuman Soliq inspeksiyasi soliq inspeksiyasi boshlig‘i A.Malikovga:

mazkur qarordan kelib chiqqan holda, yer solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va noruda qurilish materiallari (sementdan tashqari) soliqlari bo‘yicha belgilangan stavkalari, soliq solish tartiblari hamda coliqga doir boshqa ma‘lumotlarni tuman hokimligining rasmiy veb-sayti, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda yoritilishi ta’minlansin.

6. Xalq deputatlari Yangihayot tumani Kengashining 2024-yil 27-dekabrdagi “Yangihayot tumani Yangihayot tumanida 2025-yilda yuridik va jismoniy shaxslardan undiriladigan ayrim soliqlarga qo‘llaniladigan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlarni tasdiqlash to‘g‘risida” II-5-023-14-220-K/24-son va “Yangihayot tumani Yangihayot tumanida joylashgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun jismoniy va yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i bo‘yicha 2025-yilda soliq stavkasiga qo‘llanadigan koeffitsentini tasdiqlash to‘g‘risida” II-5-024-14-220-K/24-son qarorlari 2026-yil 1-yanvardan o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

7. Mazkur qaror 2026-yil 1-yanvardan kuchga kiradi.

8. Ushbu qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari Yangihayot tumani Kengashining Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi S.Vafayev zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **INOGAMOV XAYOT ILYASOVICH**

Xalq deputatlari Yangihayot tumani
Kengashining
2025-yil 29-dekabrdagi
II-24-141-14-220-K/25 -son qaroriga
1-ilova

2026-yil 1-yanvardan yuridik va jismoniy shaxslarning noturar ob’ektlari uchun yer solig‘i bo‘yicha mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar (1 gektar uchun)

№	Mahalla nomi	Zona	2026-yil uchun qo‘llaniladigan koeffitsiyent miqdori
1	Yangi Darxon MFY	4	1,28
		5	1,28
2	Yangi Umid MFY	4	1,28
3	Yangihayot MFY	4	1,28
4	Oriyat MFY	4	1,28
5	Gulshanobod MFY	4	1,28
		5	1,28
6	Toshkent MFY	4	1,28
		5	1,28
7	Xushnud MFY	4	1,28
		5	1,28
8	Chortoq MFY	4	1,28
		5	1,28
9	Binokor MFY	4	1,28
		5	1,28
10	Xo‘ja Uchqun MFY	5	1,28
11	Jaloir MFY	5	1,28
12	Yangi Gulzor MFY	4	1,28
		5	1,28
13	Olchazor MFY	4	1,30
14	Yo‘ldosh MFY	4	1,28
15	Chorbog‘ MFY	4	1,28
16	Viqor MFY	4	1,28
17	Al-Farg‘oniy MFY	4	1,28
18	Fayzli MFY	4	1,28
		5	1,28
19	Do‘stlik MFY	4	1,28
20	Yangi Turmush MFY	4	1,28
21	Choshtepa MFY	4	1,28
22	Yangi Choshtepa MFY	4	1,28

23	Zarbdor MFY	4	1,28
24	Navqiron MFY	4	1,28
25	Xumo MFY	4	1,30
26	Mash’al MFY	4	1,30
27	Tashabbus MFY	4	1,30
28	Charog‘on MFY	4	1,30
29	Marhamat MFY	4	1,30
30	Yorqin hayot MFY	4	1,30

Xalq deputatlari Yangihayot tumani
Kengashining
2025-yil 29-dekabrdagi
II-24-141-14-220-K/25 -son qaroriga
2-ilova

2026-yil 1-yanvardan jismoniy shaxslarning turar obyektlari uchun olinadigan yer solig‘i bo‘yicha mutloq miqdorda 1 kv. metr uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar
(Turar ob’ektlar 1 kv.m uchun)

№	Mahalla nomi	Zona	2026-yil uchun qo‘llaniladigan koeffitsiyent miqdori
1	Yangi Darxon MFY	4	1,20
		5	1,20
2	Yangi Umid MFY	4	1,28
3	Yangihayot MFY	4	1,28
4	Oriyat MFY	4	1,28
5	Gulshanobod MFY	4	1,28
		5	1,28
6	Toshkent MFY	4	1,20
		5	1,20
7	Xushnud MFY	4	1,28
		5	1,28
8	Chortoq MFY	4	1,20
		5	1,20
9	Binokor MFY	4	1,22
		5	1,22
10	Xo'ja Uchqun MFY	5	1,20
11	Jaloir MFY	5	1,20
12	Yangi Gulzor MFY	4	1,20
		5	1,20
13	Olchazor MFY	4	1,28
14	Yo‘ldosh MFY	4	1,28
15	Chorbog‘ MFY	4	1,28
16	Viqor MFY	4	1,28
17	Al-Farg‘oniy MFY	4	1,28
18	Fayzli MFY	4	1,28
		5	1,28
19	Do‘stlik MFY	4	1,28
20	Yangi Turmush MFY	4	1,28
21	Choshtepa MFY	4	1,28
22	Yangi Choshtepa MFY	4	1,28

23	Zarbdor MFY	4	1,28
24	Navqiron MFY	4	1,28
25	Xumo MFY	4	1,28
26	Mash'al MFY	4	1,28
27	Tashabbus MFY	4	1,28
28	Charog‘on MFY	4	1,28
29	Marhamat MFY	4	1,28
30	Yorqin hayot MFY	4	1,28

Xalq deputatlari Yangihayot tumani Kengashining
2025-yil 29-dekabrdagi
II-24-141-14-220-K/25 -son qaroriga
3-ilova

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar

T/r	Sohalar	Yer usti suv manbalari			Yer osti suv manbalari		
		2026-yil uchun soliq stavkasi *(1 kub metr uchun)*	**Taklif etilayotgan koeffitsent (0,7 dan 1,5 gacha)**	Soliq stavkasi *(1 kub metr uchun)*	2026-yil uchun soliq stavkasi *(1 kub metr uchun)*	**Taklif etilayotgan koeffitsent (0,7 dan 1,5 gacha)**	Soliq stavkasi *(1 kub metr uchun)*
1	Iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi korxonalar (bundan 2-bandda ko’rsatilganlar mustasno), shu jumladan sanoat korxonalari, yakka tartibdagi tadbirkorlar va tadbirkorlik faoliyati va (yoki) daromad olish uchun mo‘ljallangan, yashash uchun mo‘ljallanmagan ko‘chmas mulk obyektlariga ega bo‘lgan jismoniy shaxslar	749,0	1,2	898,8	910,0	1,2	1092,0
2	Elektr stansiyalari va kommunal xizmat ko‘rsatish korxonalari	118,0	1,2	141,6	144,0	1,2	172,8
3	Qishloq xo‘jaligi yerlarini sug‘orish va baliqlarni yetishtirish (o‘stirish) uchun foydalaniladigan suv hajmi, shu jumladan dehqon xo‘jaliklari va qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarga ega bo‘lgan jismoniy shaxslar	107,0	1,2	128,4	107,0	1,2	128,4
4	Avtotransport vositalarini yuvish uchun ishlatilgan suv hajmi	16 050,0	1,2	19 260,0	16 050,0	1,2	19 260,0

5	Alkogolsiz ichimliklarni hamda pivo va vinodan tashqari alkogol mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun foydalaniladigan suv hajmi	40 660,0	1,2	48 792,0	40 660,0	1,2	48 792,0

Xalq deputatlari Yangihayot tumani Kengashining
2025-yil 29-dekabrdagi
II-24-141-14-220-K/25 -son qaroriga
4-ilova

Noruda qurilish materiallari boʻyicha (sementdan tashqari) soliqning qatʻiy belgilangan stavkalariga qoʻllaniladigan koeffitsiyentlar

T/r	Noruda qurilish materiallari nomi	2026-yil uchun soliq stavkasi *(1 kub metr uchun soʻmda)*	Taklif tilayotgan koeffitsent	Soliq stavkasi *(1 kub metr uchun soʻmda)*
1	Arralanadigan,xarsangtosh, xarsangtosh, ohaktosh-chigʻanoq, ohaktosh (sement va ohak ishlab chiqarish uchun moʻljallangan ohaktoshdan tashqari), dolomitlar, qurilishda ishlatiladigan mayda toshlar, bazalt, granodioritlar, granosiyenitlar, siyenitlar, porfiritlar, diabaz-porfiritlar, gabbro, slanets jinslari, karbonat xomashyosi, travertine	6 591,0	1,1	7 250,1
2	Sement ishlab chiqarishga moʻljallangan ohaktosh	7 062,0	1,1	7 768,2
3	Qurilish qumi, qumtoshlar, qum-shagʻal aralashmasi (qum-shagʻalning karerdagi realizatsiya minimal miqdori bir metr kubi uchun **20 ming soʻm**)	5 350,0	1,1	5 885,0
4	Gʻisht-cherepitsa hom ashyosi, lyosslar va lyossimon jinslar	4 943,0	1,1	5 437,3
5	Gips toshi, gips va angidrid, ganch	17 066,0	1,1	18 772,6
6	Tabiiy bezaktoshdan bloklar	10 700,0	1,1	11 770,0
7	Marmar	21 400,0	1,1	23 540,0
8	Granitlar	32 100,0	1,1	35 310,0